

TEXNIK TOPSHIRIQNOMA



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rribbosari v.b.:
O.Voxidov

**«20» avgust 2025 y.
№ 170**

Texnik topshiriq **Bank uchun TV show loyihasini ishlab chiqish va namoyish etish**

T/r	Talablar ro'yxati	Talablar mazmuni
1.	Tashkilotchi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
2.	Buyurtmachi	«Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB
3.	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Bank uchun TV show loyihasini ishlab chiqish va namoyish etish
4.	Tanlov savdolarini o'tkazish uchun asos	O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №684- sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagи “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori hamda bank Boshqaruvining 2024-yil 4-martdagи 41-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Biznesni rivojlantirish banki» ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibi”.
5.	Xizmatlarini pudratchining mas'uliyat sohasiga o'tkazishga qo'yiladigan talablar	Shunga o'xshash ishlarni amalga oshirilgani haqida tasdiqlovchi hujjat; Xizmatni bajarish uchun yetarli mutaxassislari mavjudligi;
6.	Buyurtmachi manzili	Toshkent shahar., Alisher Navoiy ko‘chasi 18 A-uy, 100011

		<p>1. Loyiha nomi: "BRB Lift" – televizion shou-loyihasi.</p> <p>2. Loyiha maqsadi: Mazkur televizion loyiha O'zbekiston aholisi orasida ijtimoiy faoliytkni oshirish, tadbirkorlik g'oyalarini targ'ib qilish hamda zamonaviy va sifatl kontent orqali tomoshabinni jalb qilishni ko'zda tutadi. Loyiha televizion formatda yaratiladi va KANTAR reytingi bo'yich "TOP 2"ga kiradigan telekanalda va uning raqamli platformalarida efiga uzatiladi.</p> <p>3. Asosiy vazifalar: Tanlovda ishtirok etuvchi ijrochidan quyidagi ishlarni amalga oshirish talab qilinadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Televizion loyiha bo'yicha to'liq pre-produksiya (syujet ishlanmasi, ssenariy yozilishi, kasting, lokatsiyalar tanlash). ⌚ Yuqori sifatl professional video va audio texnika yordamida suratga olish (Full HD / 4K formatida). ⌚ Post-produksiya ishlari: montaj, rang korreksiyasi, grafikalar, maxsus effektlar, ovoz berish, subtitrlar. ⌚ Tayyor mahsulotni belgilangan formatda topshirish (MP4, MOV, ProRes va h.k.). ⌚ Loyiha davomida buyurtmachi bilan doimiy aloqada bo'lish va oraliq versiyalarni muvofiqlashtirish. <p>4. Loyiha hajmi va davomiyligi:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Har bir soni: 45 daqiqadan kam bo'lmasligi ⌚ Jami sonlar: 12 ta ⌚ Umumiy davomiylik: ko'rsatuv sonlari to'liq 3 oy davomida namoyish etiladi ⌚ Ishlarni amalga oshirish muddati: Loyiha 6 oy davomida to'liq yakunlanishi lozim. <p>6. Shou-loyihani namoyish etish talablari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Kanal: Loyiha / ko'rsatuvlar KANTAR reytingi bo'yich "TOP 2"ga kiradigan telekanalda va uning raqamli platformasida namoyish etilishi. ⌚ Namoyish etish shartlari: Xaftaning har shanba yoki yakshanba kunlari kechki prime-time vaqtida bittadan soni namoyish etib borilishi. ⌚ Shou boshlanishi va tugashi, reklama bloklarida 5 sekunddan kam bo'liman bank brendi namoyish etilishi. ⌚ Shou namoyish etishidan 1 oy oldindan boshlab bank bredi bilan anonslarni namoyish etishni boshlash. <p>7. Topshirilishi lozim bo'lgan kontent materiallar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Har bir sonning final versiyasi ⌚ Ishlab chiqilgan ssenariylar va rejissyorlik ishlanmalari ⌚ Raw (montaj qilinmagan) materiallar nusxasi ⌚ Loyihaning qisqa treyleri va reklama roligi (30-60 soniya) ⌚ Ish jarayonini aks ettiruvchi fotohisobot <p>8. Tenderda ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Televizion yoki media loyihalarni ishlab chiqishda kamida 2 yillik tajriba ⌚ Oldingi ishlar portfoliosi ⌚ Texnik imkoniyatlar (kamera, montaj studiyasi, grafika bo'limi va boshqalar) ⌚ Mutaxassislar jamoasi (rejissyor, operator, montajchi, ssenarist va h.k.) <p>9. Baholash mezonlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Taklif etilgan ijodiy yechim va kontseptsiya sifati ⌚ Texnik imkoniyatlar va ishlab chiqarish quvvatlari
7.	Xizmatning bat afsil tarkibi	

		<ul style="list-style-type: none"> ⌚ Narx va sifat nisbati ⌚ Loyihani o‘z vaqtida topshirish kafolati <p>10. Qo‘srimcha talablar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Mualliflik huquqlari buyurtmachi va bajaruvchida bo‘ladi ⌚ Har qanday tashqi homiylik, brending yoki mahsulot joylashtirish holatlari oldindan kelishiladi ⌚ Ijrochi davlat qonunchiligi asosida barcha zarur ruxsatnomalarni oladi <p>11. Loyihada ishtirot etish tarkibi:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Ushbu loyihada O‘zbekistonda taniqli bo‘lgan 6 tadan kam bo‘lmagan tadbirkor-mentorlarni ishtirotkini ta‘minlash. ⌚ TV show boshlovchisi sifatida O‘zbekistonda taniqli bo‘lgan tadborkorni jalb etish; ⌚ Loyihani yakuniy natijalarini baholash uchun tajribali hakamlar tarkibini shakllantirish. ⌚ Kasting, talabgorlarni yig’ish, saralash bo‘yicha jamoa. <p><i>Har bir ishlab chiqiladigan media mahsulot/videoning stsenariysi, mentorlar va hakamlar tarkibi, efir vaqlari, buyurtmachi bilan oldindan kelishilishi va TV efiriga taqdim etilishidan oldin tayyor video fayllar buyurtmachi tomonidan tasdiqlanishi lozim. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanmagan media mahsulotlar TV efirda namoyish etilsa, ushbu ishlar bajarilmagan deb hisoblanishu mumkin</i></p>
8.	Qo‘srimcha ma’lumotlar	Tanlash ishtirotchilari - tanlash predmetining xarid hujjatlari (bajariladigan ishlar) yuzasidan, bilan tanishib chiqishga va xarid jarayonida Tanlov tashkilotchisiga xarid hujjatlari bilan tanishib chiqish yuzasidan murojat qilishga haqlidirlar. Tanlov hujjatlarida bajariladigan ishlar qiymati, narx taklifini ochiq taqdim etgan ishtirotchilar tanlovdan chetlashtiriladi.
9.	To l‘ovlarni amalga oshirish	- shartnoma rasmiylashtirilganidan va shartnoma shaklida ko‘rsatilgan dastlabki ishlar bajarilgandan so‘ng 50% oldindan to‘lov amalga oshiriladi; - bajarilgan ishlar va amalga oshirilgan xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomma hisob-faktura buyurtmachi va pudrat tashkiloti tomonidan imzolangandan so‘ng 5 (besh) ish kuni ichida ishlar bajarilgan ishlar va xizmatlar xajmiga qarab bo‘lib amalga oshirib boriladi.
10.	Shartnomani amal qilish muddati	Shartnoma summasi to‘liq foydalangunga qadar.
11.	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar to‘liq bajarilganidan so‘ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi
12.	G‘olib tashkilot	Tanlash yakuni natijasiga aniqlanadi.
13.	Ishtirotchilaming tashkilotchi bilan bog‘lanish uchun aloqa telefonlari	(78) 150-93-39 (ichki 334) Jasur Karimov
14.	Baholash mezoni	Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari boyicha baholanadi.

kelishuvchilar: S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=tC22qH89&id=3866aaff-09f1-4c99-bff1-e7b36abca928>